



XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 5-iyun

VII-24-61-5-70-K/26

Konimex tumani

Konimex tumani “To‘qqiztepa” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini “Sho‘rko‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini nomiga o‘zgartirish to‘g‘risida

Konimex tumani “To‘qqiztepa” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini “Sho‘rko‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini deb nomlanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 294-sonli qaroriga muvofiq yig‘ilgan hujjatlar va Konimex tumani hokimining 2026-yil 20-maydagi 01-06/1347-sonli xati, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i S.Risbekovning hisoboti, xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 1-iyundagi DKQ-03-03/63-26-sonli qarori va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Konimex tumani hokimining 2026-yil 20-maydagi 01-06/1347-sonli xati hamda “To‘qqiztepa” mahalla fuqarolar yig‘inining 2026-yil 11-fevraldagi 4-son yig‘ilish bayoni bilan “To‘qqiztepa” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini “Sho‘rko‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini deb o‘zgartirish bo‘yicha iltimosnomasi, Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2026-yil 23-apreldagi 01-06/38-son yig‘ilishi bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2026-yil 15-maydagi 05/08-5262-sonli, viloyat hokimligining 2026-yil 20-maydagi 16-16/463-sonli xatlari inobatga olinsin.

2. Konimex tumani “To‘qqiztepa” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini “Sho‘rko‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini nomiga o‘zgartirish to‘g‘risida O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i S.Risbekovning hisoboti qoniqarli deb topilsin.

3. Konimex tumani “**To‘qqiztepa**” mahalla fuqarolar yig‘ini nomi qonun hujjatlariga asosan “**Sho‘rko‘l**” mahalla fuqarolar yig‘ini deb o‘zgartirilsin.

4. Konimex tumani hokimining ma’naviy - ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (G.Narinbetova)ga mazkur geografik obektni Davlat reestriga kiritish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Ne’matov) va “Кенимех таны” gazetasi tahririyati (N.Kalmanbetova)larga O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari (M.Tulegenov), nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Zaitov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**XUDAYBERDIYEV
AZAMAT
XAYDARKULOVICH**